



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 5-avgust, № 158 (9053)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 4-avgust kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.



Turkmanboshi shahri aeroportida davlatimiz rahbarini Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli

Berdimuhamedov kutib oldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmanboshi shahriga kelgach Gurbanguli

Berdimuhamedov bilan uchrashuv o'tkazdi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Gurbanguli

Berdimuhamedovni BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi

konferensiyasi yuksak saviyada o'tkazilayotgani bilan samimiy qutlab, uning kun tartibiga kiritilgan masalalar mintaqamizning barqaror taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Joriy yil aprel oyida Samarqand shahrida o'tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston — Turkmaniston yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Do'stlik, o'zaro ishonch va umumiy manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali hamkorlik sur'ati ortib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajada samarali va faol muloqotlar davom etmoqda. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 600 million dollarni tashkil etdi. Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya chuqurlashtirib bormoqda.

Birgalikda "Shovot — Toshovuz" chegaraldagi savdo zonasini tashkil etilmoqda,

faol hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvlar davom ettirilmoqda.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida hukumatlararo komissiyalar yig'ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi, qator madaniy tadbirlar o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, BMT konferensiyasi kun tartibi hamda joriy yil kuzda Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

O'zbekiston yetakchisi 5-avgust kuni BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasida, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko'rish masalalariga bag'ishlangan maxsus tadbirda ishtirok etadi hamda qator ikki tomonlama muzokaralar o'tkazadi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'buot xizmati surati.

MUSHTARAK MAQSDLAR YO'LIDAGI IZCHIL HAMKORLIK

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni Turkmanistonning "Avaza" turistik zonasida bo'lib o'tadigan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha III konferensiyasida ishtirok etadi.

Biz va jahon

III konferensiya BMT Kotibiyati tomonidan Turkmaniston hukumati bilan birgalikda tashkil qilinyapti.

Unda davlat va hukumat rahbarlari, 100 dan ortiq yuqori darajadagi delegatsiyalar, jumladan, 32 ta rivojlanayotgan mamlakat vakillari, shuningdek, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish qatnashishi kutilmoqda.

Konferensiya doirasida siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar tadbirlar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarining kunlari, madaniyati, san'ati hamda milliy taomlari namoyish etiladi. Shuningdek, mintaqada davlatlarining yutuqlari, sarmoyaviy va infratuzilma loyihalari, texnologik yechimlariga bag'ishlangan ko'rgazma bo'lib o'tadi.

Dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga BMTga a'zo 32 ta davlat kiradi. MDH mamlakatlari orasida Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston uning ishtirokchilaridir.

Guruhning asosiy vazifalari a'zo mamlakatlarning jamoaviy iqtisodiy manfaatlarini rivojlantirish va ilgari surish, global miqyosda kelishilgan maqsad hamda harakat dasturlarini samarali amalga oshirish, BMT, Jahon savdo tashkiloti va boshqa ko'p tomonlama forumlar doirasida asosiy xalqaro iqtisodiy masalalar bo'yicha ularning umumiy pozitsiyasini mustahkamlashdan iborat.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha xalqaro konferensiya muhim qarorlar qabul qilishning asosiy platformasi bo'lib, u har o'n yilda bir marta o'tkaziladi.

2003-yilning 28-29-avgust kunlari Qozog'istonning Olmaota shahrida BMT Bosh Assambleyasining 57/242-rezolyutsiyasiga muvofiq Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha birinchi xalqaro konferensiya chaqirildi. Ushbu yig'ilish oldidan hukumatlararo tayyorlov qo'mitasining ochiq ikkita majlisi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT

2-avgust kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video-konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Yalpi majlisning ikkinchi ish kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun muhokamasidan boshlandi.

Qonunga asosan, oliy yoki o'rta maxsus, professional tibbiy ta'lim tashkilotlarini tamomlagan va davlat ro'yxatidan o'tgan shaxslariga tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, unda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmidan ortiqcha tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Muhokama jarayonida senatorlar tomonidan ushbu qonunda qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ayrim masalalar mavjudligi ta'kidlandi.

Jumladan, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning asosiy tartib-taomillarini qonun darajasida belgilash maqsadga muvofiqligi, qonunga tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadi, ro'yxatdan chiqarish asoslari, bu harakatlarning oqibatlari, shuningdek, ro'yxatning ochiq bo'lishi, undan aholi foydalanishi kabi masalalarni kiritish lozimligi qayd etildi.

Bundan tashqari, "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasida ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga kiritilgan.

Shularni inobatga olib, ushbu qonunni qayta ko'rib chiqish lozimligi to'g'risida Senat qarori qabul qilindi.

Senatning yalpi majlisida "Xalqaro metrik Konvensiyaga (Parij, 1875-yil 20-may, 1907-yil 17-oktyabrdagi, 1913-yil 11-oktyabrdagi va 1921-yil 6-oktyabrdagi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Konferensiya

O'ZBEKISTON DELEGATSIYASI MUHIM TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi delegatsiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida bo'lib o'tayotgan tadbirlarda qatnashish uchun Turkmanistonning Avaza shahrida bo'lib turibdi.

Ushbu xalqaro tadbir dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan mamlakatlar duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida hukumatlar, parlamentlar, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar hamjamiyati vakillarini birlashtiradi. Mazkur konferensiya doirasida tashkil etilgan "Yo'nalishni belgilab: dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan

mamlakatlar uchun Avaza harakatlari dasturini amalga oshirishga ko'maklashish" mavzuidagi parlament forumidagi nutqida T. Norboyeva O'zbekiston tomonidan dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi tufayli yuzaga kelayotgan iqtisodiy va logistika cheklolari, shu jumladan, tashqi savdoning murakkablashuvi, transport infratuzilmasining rivojlanishidagi muammolarni alohida ta'kidladi.

Qonunchilik palatasi Kengashida

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR KO'RIB CHIQILDI

Shu yilning 29-iyul kuni Prezidentimiz huzurida o'tkazilgan taqdimotda maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish chora-tadbirlari ko'rsatib o'tildi.

Taqdimot doirasida bu borada Qonunchilik palatasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ham axborot berildi.

Ma'lumki, bundan roppa-rosa besh oy avval Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida davlat rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalar doirasida Qonunchilik palatasi tomonidan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, har bir qo'mita, siyosiy partiyalar fraksiyalari, komissiyalar kesimida amalga

oshirilishi zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlar aniq belgilab olingan edi.

O'tgan davrda bu borada keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Xususan, qonunlarda korrupsiyaga imkon beruvchi normalarni aniqlash va bartaraf etish, bu borada ta'sirchan parlament nazoratini ta'minlashga qaratilgan Qonunchilik palatasi Kengashining tegishli qarori qabul qilindi.

BUYUK KELAJAK MAKTABDAN BOSHLANADI

Birinchi sinfga qadam qo'yayotgan bolajonlar uchun Prezident sovg'alari



2025/2026 o'quv yilida mamlakatimizdagi mavjud 10 170 tadan ortiq umumta'lim maktablarida 6,7 mln. nafar o'quvchi ta'lim olishni boshlashi kutilmoqda. Shuningdek,

- yangi o'quv yilida 30 dan ortiq yangi maktablar o'z faoliyatini boshlaydi;
- joriy yilda ijtimoiy, ishlab chiqarish dasturlari va boshqa manbalar hisobidan 379 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilishi natijasida 112 mingga yaqin o'quvchi o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Yangi o'quv yilida 738 ming nafar bola 1-sinfga kelishi kutilmoqda. Qabul jarayonlari 15-avgustga qadar davom etadi. 1-sinfga qabul qilinayotgan bolajonlar uchun 12 nomdagi o'quv qurollari Prezident sovg'asi sifatida tayyorlandi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT



Mazkur hujjatning asosiy maqsadi barcha davlatlar uchun o'chovlar birligini ta'minlaydigan umumiy va ishonchli standartlar yaratish, milliy etalonlarni xalqaro prototiplar bilan qiyoslash va o'zaro tan olish imkonini beruvchi yagona tizimni shakllantirishdan iborat.

Ta'kidlanganidek, Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlarning metrologik standartlar birligini ta'minlash, shu jumladan, etalonlar va aniqlik shkalalarini, geodezik o'chovlarni solishtirish va kalibrash, milliy etalonlarni xalqaro prototiplarni etalonlari bilan davriy solishtirish hamda xalqaro prototiplarni saqlash kabi muhim masalalar nazarda tutilgan.

Senatlar tomonidan qayd etilishicha, mazkur qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning Xalqaro tarzi va o'chovlar byurosi faoliyatida faol ishtirok etishi, ovoz berishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu byuroning ilmiy va texnik laboratoriyalaridan foydalanish va yetuk mutaxassislarining malakalarini oshirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, unga a'zo bo'lish mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashga, investitsiyalar jalb etuvchanligini oshirishga, eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Byuroga a'zo davlatlar o'rtasidagi

navbat asosida byuro laboratoriyalarida etalonlarni qo'shimcha xarajatsiz kalibrashdan o'tkazish va O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi yo'lida tashqi savdo aloqalarini olib borishda texnik to'siqlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Muhokama yakunida senatorlar tomonidan qonun ma'qullandi.

Yalpi majlisda hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish bo'yicha ko'rilayotgan choralar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish masalasi muhokama qilindi.

Qayd etish joizki, so'nggi yillarda hududlarda aholiga qulaylik yaratish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmog'da.

Xususan, o'tgan 7 yil davomida sohani tartibga solishga oid 150 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda PQ-454-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida joriy yil yakuniga qadar 1,6 trillion so'mlik 145 ta ichimlik va oqova suv obyektida 803,4 kilometr ichimlik va 242,8 kilometr oqova suv tarmoqlarini, 71 ichimlik, 26 ta oqova suv inshootlarida qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Shu bilan birga, senatorlar hududlar infratuzilmasini rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, bosh reja va shaharsozlik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish bilan bog'liq o'z yechimini kutayotgan ayrim masalalarga ham e'tibor qaratdi.

Majlisda Senat a'zolari tomonidan ayrim hududlardagi infratuzilmani rivojlantirish va qurilishlarni tartibga solishda sohaga oid qonun hujjatlariga to'la rioya qilinmasligi, noqonuniy, ayniqsa, ko'p qavatli uylarga tutash hududlarda o'zboshimchalik bilan amalga oshirilayotgan qurilishlar va umumiy foydalanish joylarini to'sib olish kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar talab darajasida emasligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, texnik iqtisodiy asoslari ishlab chiqilmagan, aniq hisob-kitobi yo'q loyihalarga tashqi manbalardan mablag' jalb qilish oqibatida xalqaro moliya institutlari mablag'laridan bir yil va undan ortiq muddatdan beri foydalanilmagan kelinayotgani ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Muhokama yakunida ushbu va boshqa bir qator masalalarga oydinlik kiritish maqsadida Senatning Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Shuningdek, majlisda senatorlar tomonidan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etilishi holati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi direktori M. Egamberdiyevga parlament so'rovi yuborish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanishicha, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimi takomillashtirilib, keng ko'lami ishlar amalga oshirilmog'da.

Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini samarali himoya qilish hamda ijro ishi yurituvda sansalorlikka chek qo'yishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Shunga qaramasdan, Senat a'zolarining joylarda o'z saylovchilari bilan uchrashuvlarida va sayyor qabullarida fuqarolar tomonidan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish

bilan bog'liq masalalar yuzasidan ko'plab e'tirozlar bildirilmog'da.

Ushbu masala senatorlar tomonidan o'rganilib, tahlil qilinganda qator salbiy holatlar aniqlangan va Majburiy ijro byurosining faoliyatida tizimli ayrim kamchiliklar hamda sohada o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjudligi qayd etildi.

Jumladan, 2023-2024-yillarda Majburiy ijro byurosi faoliyatiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar soni ortgan (2023-yilda 136 982 ta, 2024-yilda 144 797 ta).

Tahlillardan aniqlanishicha, murojaatlarning aksariyat qismi aliment undirish (2023-yilda – 69 058 ta, 2024-yilda – 72 642 ta) hamda byuro organlari xodimlari xatti-harakatlari ustidan shikoyatlar (2023-yilda – 8 038 ta, 2024-yilda – 11 425 ta) bilan bog'liq masalalarni tashkil qilgan.

Shuningdek, senatorlar tomonidan byuro organlari murojaatlarni ko'rib chiqishga yetarli e'tibor qaratmasligi, fuqarolarga o'z vaqtida va to'g'ri tushuntirish bermasligi oqibatida aliment undirish, sud qarorlari ijrosi, zararni



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

undirish, byuro organlari xodimlari xatti-harakatlari bilan bog'liq takroriy murojaatlar soni ham ortganligi tanqid qilindi.

Bundan tashqari, 2025-yilning I choragida 255 ta ishga tiklash bilan bog'liq ijro hujjatlari o'z vaqtida bajarilmagan. Ushbu ijro hujjatlarining aksariyat qismi ichki ishlar (80), soliq organlari (18), ta'lim

sohasi (16), hokimliklar (14), sog'liqni saqlash tizimi (6) hissasiga to'g'ri keladi.

O'z navbatida, huquqni qo'llash amaliyotida ham ayrim muammolar mavjudligi senatorlar tomonidan tanqid qilindi.

Muhokama natijasida mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi parlament so'rovi yuborish bo'yicha Senatning tegishli qarori qabul qilindi.

Senatlar yalpi majlisida dorivor o'simliklarni yetishtirish, qayta ishlash, ularga kvota ajratish hamda sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish yuzasidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A. Abduhakimovga parlament so'rovi yuborish masalasi ham muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmog'da. Jumladan, "bir tuman – bir mahsulot" tamoyili asosida dorivor o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan 73 ta tumanida 2024-yilda 22,3 ming gektar maydonda 100 turdan ortiq dorivor o'simliklar xomashyosi tayyorlangan.

Rossiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Germaniya va Ispaniyaning dorivor o'simliklar sohasida faoliyat olib boruvchi kompaniyalari bilan manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha 23,8 milliard dollarlik 25 ta loyiha doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

"Zarur dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va terib olish amaliyoti – GASP" davlat standarti joriy etilgan.

Shu bilan birga, dorivor o'simliklarning davlat kadastri to'laqonli yuritilmayotganligi, tabiiy dorivor o'simliklar yig'ib olish uchun kvota ajratish jarayonida ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi, sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish kabi ishlar yetarli darajada amalga oshirilmayotgani qayd etildi.

Tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib, madaniy holda yetishtiriladigan dorivor o'simliklarning ilmiy asoslangan agroteknologik xaritalarini hududlar kesimida ishlab chiqish, yovvoyi turlardan seleksion nav va duragaylarga o'tish, urug'chilik xo'jaliklarini va onalik ko'chatzorlarini tashkil qilish samarali yo'lga qo'yilmaganligi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, dorivor o'simliklar xomashyosi hamda ulardan olinadigan mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish laboratoriyalarini tashkil etishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

Muhokama yakunida ushbu masalalarga oydinlik kiritish uchun Senatning parlament so'rovi yuborishga doir tegishli qarori qabul qilindi.

Shuningdek, senatorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlari ham tasdiqlandi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohasi huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 13 ta masala, shu jumladan, 9 ta qonun ko'rib chiqildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqizinchi yalpi majlisi yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati
Axborot xizmati.

O'ZBEKISTON DELEGATSIYASI MUHIM TASHABBUSLARNI ILGARI SURDI

Qayd etilganidek, O'zbekiston dunyoda okeanga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan o'tishi zarur bo'lgan ikki mamlakatdan biridir.

Forum ishtirokchilari e'tiboriga O'zbekistonning mintaqaviy bog'liqlik va integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslari, jumladan, temir yo'l va avtomobil transporti sohasida Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar taqdim qilindi.

Ayniqsa, transaf'gon yo'lga – Termiz – Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar temir yo'l magistrali istiqboldagi eng muhim loyihalardan biri sifatida qayd etildi. Ushbu yo'lak Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida

savdo va logistika aloqalarini keskin rivojlantirish imkonini beradi.

Forum davomida O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan bir qator muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Xususan, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlar parlamentlari o'rtasida tizimli muloqotni yo'lga qo'yish, "yashil" logistika va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, savdo va tranzit jarayonlarini soddalashtirish hamda raqamli yechimlarni joriy etish bo'yicha parlamentlararo hamkorlikni chuqurlashtirish taklif qilindi.

Bundan tashqari, ilmiy va texnologik hamkorlik, innovatsion yechimlar almashinuvi va ilmiy forumlar tashkil etish zarurati ham ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

PARLAMENTLARARO ALOQALARNING ISTIQBOLLARI BELGILAB OLINDI

Turkmanistonning Avaza shahrida o'tkazilgan BMTning Dengizga chiqish imkonini bo'lmagan rivojlantirish mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Ozarbayjon Milliy Mejlisi Raisi Sahiba Gafarova va Turkmaniston Mejlisi Raisi Dunyogo'zal Gulmanova bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuv

Samimiy ruhda o'tgan muloqotda parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, ko'p tomonlama aloqalarini kengaytirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Suhbat chog'ida Xiva shahrida o'tkazilgan Birinchi O'zbekiston – Ozarbayjon parlamentlararo forumi

ikkita davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashda samarali tajriba almashuv maydoniga aylangan ta'kidlandi. Shuningdek, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida diplomatik munosabatlarni o'rnatilganining 30 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan bunday forumlar ikki tomonlama aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR KO'RIB CHIQLDI

Mahallalarga borib jinoyatlarning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'rganishlar olib borilib, mahallalarda ilgari surilgan xalqchil tashabbuslar asosida qonunlarni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Xususan, Qonunchilik palatasi Spikeri boshchiligidagi bir guruh deputatlar tomonidan Farg'ona, Toshkent, Jizzax viloyatlarida o'rganishlar o'tkazildi. 32 ta tuman-shaharda og'ir va o'ta og'ir hamda oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning omillari tahlil qilindi.

Har bir o'rganish yakuni bo'yicha tumanlarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalari o'tkazildi. Sessiyalarda prokuror va ichki ishlar organlari rahbarlarining hisoboti hamda axboroti eshitilib, ularning oldiga aniq vazifalar qo'yildi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan har oyda aniq bir soha, tarmoqda korruptsiyaga qarshi kurashish holatini o'rganish va tegishli takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, o'tgan vaqt davomida sog'liqni saqlash, qurilish, kadastr, davlat xaridlari kabi sohalar bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan byudjetdan eng ko'p mablag' oluvchi vazirlik va idoralarda byudjet mablag'laridan foydalanishda korruptsiyaviy holatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi, Sog'liqni saqlash hamda Suv xo'jaligi vazirliklarida o'rganishlar o'tkazildi.

O'tgan davrda deputatlar tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan 14 ta qonun loyihasi ishlab chiqildi. Fribgarlik jinoyatini keskin kamaytirish va sodir etilishining oldini olish, davlat xaridlarida to'g'ridan-to'g'ri raqobatsiz savdolariga chek qo'yish, ijtimoiy tarmoqlardagi noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlik belgilash, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, bu boradagi fribgarliklarning oldini olish, tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit ajratishda korruptsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan juda muhim qonun loyihalari shular jumlasidandir.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi majlislarida davlat organlari rahbarlarining uch marta, qo'mitalar majlislarida 20-marta axboroti eshitildi, 3 ta "hukumat soati" o'tkazildi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish doimiy va uzviy jarayondir. Xuddi shuning uchun ham Prezidentimiz huzurida bo'lib o'tgan taqdimotda bu boradagi navbatdagi vazifalar belgilanib, ko'p hollarda korruptsiya illatining sabablari chetda qolib, uning oqibati bilan kurashilayotganligi, korruptsiyaga yo'l qo'yilmaydigan preventiv choralar hali yetarli emasligi ham tanqidiy tahlil qilindi.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining navbatdagi yig'ilishida korruptsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish borasida quyi palata va uning organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar borligi qayd etildi.

Hokimlik, kadastr, bank va soliq idoralarda byurokratiya, "korruptsiyaviy tuynuklar" to'liq yo'qolmaganligi, joylarda yer ajratish bo'yicha noqonuniy xatti-harakatlar haligacha mavjudligi ta'kidlab o'tildi.

Kengashda korruptsiyaga qarshi kurashishda deputatlarning faolligini



yanada oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, hududlarda muammoni chuqur o'rganish, tahlil qilish va uni bartaraf etishga nisbatan ta'sirchan parlament nazoratini kuchaytirish, asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish juda muhimligi aytib o'tildi.

Davlat rahbari tomonidan berilgan vazifalardan kelib chiqib, deputatlar korpusi oldida turgan muhim yo'nalishtirish ko'rib chiqildi.

Qonunchilik palatasi tomonidan kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan tayyorlangan Chora-tadbirlar rejasini atroflicha muhokama qilinishi, tasdiqlandi.

Unga ko'ra saylovchilarga maishiy korruptsiyaga qarshi kurashishning ahamiyatini yetkazish, mahalliy Kengashlar bilan o'zaro hamkorlikni, shu jumladan, har o'ning 1 – 5 sanasida – "jinoyatchilikka qarshi kurashish haftaligi" doirasida targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish reja qilindi.

Sohalar kesimida korruptsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni o'rganish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va sarflash borasida xalq deputatlari

mahalliy Kengashlari tomonidan olib borilayotgan deputatlar nazoratining natijadorligi va tashabbusli byudjet jarayonlaridagi holatlar tahlil qilindi.

Hududlarda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jinoyatchilikni barqaror profilaktika qilish, maishiy korruptsiyaning oldini olish, shuningdek, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzasini Oliy Majlis palatasiga taqdim etishning aniq muddatini qonunchilikda belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ishlab chiqiladi.

Yig'ilishda, shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bir mandattli saylov okruglaridan saylangan deputatlarining saylov okrugidagi faoliyatini tashkil etish bo'yicha Usuliy tavsiyalar ko'rib chiqildi.

Ushbu uslubiy tavsiyalar Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okrugidagi faoliyatida samarali, tizimli va natijaga yo'naltirilgan ish uslubini joriy etishga qaratilgan.

Yig'ilishda kun tartibidagi boshqa masalalar bo'yicha ham tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

MUSHTARAK MAQSADLAR YO'LIDAGI IZCHIL HAMKORLIK

Anjuman yakunlari bo'yicha samarali tranzit transport tizimlarini yaratish, ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va chegaralar nazorati tartib-qoidalarini soddalashtirish bo'yicha global asosni shakllantirishga qaratilgan Olmaota harakatlar dasturi qabul qilindi.

2014-yil 3 - 5-noyabr kunlari Avstriyaning Vena shahrida BMTning Dengizga chiqish imkonini bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha II konferensiyasi bo'lib o'tdi. Tadbinning asosiy natijasi 2014 - 2024-yillarga mo'ljallangan Vena harakat dasturining qabul qilinishi bo'ldi. Dastur dengizga chiqish imkonini bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiyoti va kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha muammolarini hal etishga oid chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston yuqorida keltirilgan hujjatlar doirasida muayyan

muammolarni hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol qatnashmoqda. Xususan, barqaror transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirilyapti. Ular BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bevosita bog'liq bo'lgan milliy taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

2022-yilda BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan 40 ta davlat bilan hammualliflikda qabul qilingan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha maxsus rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qulladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston transfg'on temir yo'li qurilishi, O'rta transport yo'lagini rivojlantirish, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi, Xitoy -

Markaziy Osiyo loyihalari kabi yirik dasturlar tashabbuskori bo'ldi va ularda ishtirok etdi.

Bu ichki infratuzilmani modernizatsiya qilish - temir yo'llarni qurish va elektrlashtirish, zamonaviy logistika uzellari va terminalarini yaratish borasidagi sa'y-harakatlar bilan to'ldirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Turkiya davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy formatlarda o'z kun tartibini faol ilgari surayotir.

Ko'p tomonlama yondashuv allaqachon o'z samarasini bermokda. O'zbekiston orqali tranzit tashish hajmi oshib bormoqda, mamlakatning Yevroosiyo logistikasi transport xabi sifatidagi roli mustahkamlanmoqda. Eng muhimi, obyektiv geografik cheklolarga qaramay, mamlakat tashqi xavf-xatarlarga chidamliligini kuchaytirib, jahon iqtisodiyotiga to'liq integratsiyalashuviga yo'l ochmoqda.

O'zbekistonda dengizdan ikki baravar uzoqlik endi qiyinchilik sifatida qabul qilinmaydi. Bugungi kunda O'zbekiston uchun bu xalqaro ustuvorliklarni belgilovchi va mamlakatni yangi Yevroosiyo logistikasining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi strategik omildir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonda uyushtirilgan BMT konferensiyasidagi ishtiroki mamlakatning xalqaro hamjihatlikni mustahkamlash va muhokama etilayotgan muammolarning barqaror yechimlarini topishga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi hamda dengizga chiqish imkonini bo'lmagan davlatlarning global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi bo'yicha yangi kun tartibini shakllantirishga konstruktiv hissa qo'shadi.

"Dunyo" AA.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

AHOLI HUQUQ VA MANFAATLARINING AMALIY IFODASI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyilgan palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.



Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko'paytirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan tashabbuslar partiya elektorati bo'lgan tadbirkorlar va fermerlar uchun muhim ekanini, sohaga oid qonunlarni yanada takomillashtirish va ijrosini ta'minlash borasida hukumat idoralari bilan hamkorlikda ish olib borish lozimligi qayd etildi.

Yig'ilishda "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, prinsiplari, davlat organlarining bu boradagi vakolatlari aniq belgilab berilmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi sanitariya choralarini, qoida va normalarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi esa xalqaro qoida va normalar bilan uyg'unlashtirilmoqda.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari Sevara Ubaydulloyeva va Risqul Siddiqov qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, deputatlar tomonidan berilgan takliflar asosida qonun loyihasi takomiliga yetkazilganini aytishdi.

Fraksiya a'zolarining fikricha, loyihada belgilanayotgan normalar oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni Jahon savdo tashkiloti qoidalari va xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solish, sohada davlat boshqaruvi va nazorati mexanizmlarini zamon talablari asosida takomillashtirish hamda vakolatli davlat organlarining vazifalarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Shaharsozlik renovatsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Loyihada shaharsozlik renovatsiyasi asoslari va maqsadlari, majburiy shartlari, asosiy prinsiplari, renovatsiya bosqichlari, bu borada loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi, sohada davlat boshqaruvi asoslari belgilanmoqda.

Muhokama jarayonida fraksiya a'zolari tomonidan renovatsiyaning muhimligi, lekin shu bilan birga, uning mustahkam qonuniy asosi bo'lishi va bu boradagi dasturlar uyojy mulkdorlari hamda keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarurligi qayd etildi. Shuningdek, qonun tashabbuskorlaridan qonun loyihasining jamoatchilik qo'shimcha xarajatlarsiz talablaridan o'tkazishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ushbu Konvensiyaga qo'shilishi O'zbekistonning xalqaro norma va standartlarga sadoqatini, xavfsizlik va barqaror rivojlanishga intilishini namoyon etadi.

"Xalq so'zi".

muhokama davomida fuqarolardan kelib tushgan taklif va e'tirozlarning inobatga olinganligi yuzasidan izoh so'raldi.

Mutasaddilar ko'tarilgan savollar bo'yicha batafsil javob, tushuntirishlar berib o'tdi. Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

"O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada

ta'minlash uchun barcha zarur sharoitni yaratishi, davlat organlari, ularning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan huquq egalarining huquqlarini buzishiga yo'l qo'yilmasligi qat'iy kafolatlanmoqda.

Shuningdek, shaharsozlik renovatsiyasini amalga oshirishda hech kim sudning qarorisiz va qonunga qat'iy zararda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilyapti.

Shu bilan birga, shaharsozlik renovatsiyasi doirasida huquq egasining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarda xususiy mulk huquqini hamda yer egasining yerga bo'lgan huquqini amalga oshirish borasida yuzaga keladigan barcha ziddiyat va noaniqliklar huquq egasining foydasiga talqin qilinishi aks etyapti.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining ahamiyatiga, ayni chog'da zaruratiga alohida to'xtalib, uni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini bildirdi. Ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar ko'tarildi.

Muhokama davomida qonun tashabbuskorlari deputatlarining savollariga atroflicha javob berdi. Bildirilgan takliflar qonun loyihasini ikkinchi o'qishga



tayyorlash jarayonida inobatga olinishini ta'kidlashdi.

Deputatlar qonun loyihasini qo'llab-quvvatlad.

"O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasida ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy bo'linmalarini yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash, ularning hisobini yuritish hamda muqobil joylashtirish shakllariga berish borasidagi vakolatlari belgilanmoqda.

Bolalarga tarbiya, ta'lim berish va sog'lig'ini saqlash bo'yicha mas'ul shaxslarga o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash nazarda tutilyapti.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan ota-ona yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslardan bolaning sog'lig'ini tiklash va reabilitatsiya uchun qilingan qo'shimcha xarajatlarni bola foydasiga undirish haqida kiritilgan arizalar, yetim bola yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani vasiysi (homiyisi), tutingan ota-onasi yashaydigan joyga doimiy ro'yxatga qo'yganda davlat boji to'lashdan ozod etish nazarda tutilyapti.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z nuqtayi nazarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Ayrim normalar yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berdi.

Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan savollar bo'yicha batafsil tushuntirish berib o'tdi.

"O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Shaharsozlik renovatsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Unda xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi, davlat xususiy mulkning but saqlanishini

"Xalq so'zi".

Senat nazoratida

QONUN RAD ETILDI. NEGA?

Oliy Majlis Senatining 9-yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qonunda tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga oliy yoki o'rta maxsus, professional tibbiy ta'lim tashkilotlarini tamomlagan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan shaxslarga ega bo'lishi, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlariga kiritilmagan tibbiy yordamning pullik asosda ko'rsatilishi nazarda tutilgan.

Muhokama jarayonida senatorlar tomonidan ushbu qonunda qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ayrim jihatlar borligi aniqlandi.

Xususan, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib-taomillarini qonun darajasida belgilash maqsadga muvofiqligi, qonunga tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadi, ro'yxatdan chiqarish asoslari, bu harakatlarining oqibatlari, shuningdek, ro'yxatning ochiq bo'lishi va undan aholining foydalanishi kabi masalalarni kiritish lozimligi qayd etildi.

Bundan tashqari, "Normativ-huquqiy hujjatlarining va ular loyihalarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasida ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi - ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga kiritilgan.

Shuni inobatga olib, mazkur qonuni taqdim qilingan haridra ma'qullash maqsadga muvofiq emas, deb hisoblandi va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi bilan ushbu qonun bo'yicha yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun kelishuv komissiyasini tuzish taklifi ilgari surildi hamda ushbu qonunni qayta ko'rib chiqish lozimligi to'g'risida Senat qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

HAYOTIMIZGA DAXLDOR HUJJATLAR

Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senatining 9-yalpi majlisida muhim ahamiyatga ega bo'lgan qator qonunlar ko'rib chiqildi va muhokamalardan so'ng qabul qilindi. Ana shunday qonunlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni borasida senatorlar o'z fikrlarini bildirdi.



Yoshlar taqdirigabefarq emasmiz

Orzigul QOZIXONOVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi:

Keyingi yillarda yurtimizda voyaga yetmaganlarni himoya qilishga, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan kafolatlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilyapti. Bu esa ularga nisbatan jinoyi javobgarlikni yanada liberallashtirish, o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyat uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxsni sudlanmagan deb hisoblashning alohida tartibini belgilash zarurati yuzaga keltirmoqda.

Shundan kelib chiqib, "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyi javobgarlik yanada liberallashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan Jinoyat kodeksiga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining 77-moddasi quyidagicha to'ldirilmoqda: "O'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan jinoyat uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi, demakdir. Shuningdek, qonunda voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddatini olti oydan bir oyga chaqarish nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun voyaga yetmaganlarning jinoyi javobgarligini yanada liberallashtirishga xizmat qilishi bilan birga o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun

jazoni o'tab bo'lgan shaxsga hayotini sudlanlik tamg'asidan xoli tarzda davom ettirishiga sharoit yaratadi.

Statistik raqamlarga ko'ra, mamlakatimizda 2023-yilda 1 911 nafar voyaga yetmagan shaxs jinoyi javobgarlikka tortilib sudlangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2 214 nafarga yetgan. O'tgan yilda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar 1 238 ta, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar soni esa 855 tani tashkil qilgan.

Afsuski, bugungi kunda jinoyatchilik ko'rsatkichlari sababli "qizil toifa"ga kiritilgan mahallalar soni yuritimizda oz emas. Bunday holatda aholi gavjum bo'ladigan hududlarda, notinch mahallalarda targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish orqali qonunbuzilish holatlarining oldini olish, ushbu maskanlarga zamonaviy kuzatuv moslamalarini o'rnatish, mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlar bandligini ta'minlash kabi uzluksiz chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metrologiyasohasini rivojlantirish sari dadil qadam

Odiljon MAMATKARIMOV, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini oshirish, milliy mahsulotni va xizmatlarni jahon bozoriga olib chiqish hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Sohalarni rivojlantirishda zamonaviy, innovatsion, ilmiy-texnologik va tizimli yondashuvlarni hamda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, sanoat, tibbiyot, farmatsevtika, energetika, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat kabi muhim tarmoqlarni rivojlantirishda metrologiya sohasi alohida o'rinda ega.

Ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali O'zbekistonning Barqaror rivojlanish uchun sifati infratuzilmasi hamda Xalqaro sifati infratuzilmasi indekslaridagi o'rni ko'tarish bo'yicha zarur sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro metrik Konvensiyaga qo'shilishi to'g'risidagi qonun shu jihatlar bilan ham muhim sanaladi.

Mazkur Konvensiya 14 ta moddadan iborat bo'lib, dastlab 1875-yil 20-may kuni qabul qilingan. Shundan so'ng 1907, 1913 va 1921-yillarda Konvensiya matniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Hozirgi vaqtda Konvensiyaga 64 ta davlat qo'shilgan bo'lib, 37 ta

mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston ham 2018-yildan uyushgan a'zo sifatida ishtirok etmoqda.

Metrik Konvensiyaning asosiy maqsadi - davlatlar uchun o'lchovlar birligini ta'minlaydigan umumiy va ishonchli etalonlar yaratish, ularni saqlash, milliy etalonlarni xalqaro prototiplar bilan qiyoslash va o'zaro tan olish imkonini beruvchi yagona tizimni shakllantirish hamda bu orqali davlatlar o'rtasidagi texnik hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

O'zbekistonning ushbu Konvensiyaga qo'shilishi Jahon savdo tashkilotiga kirishida xorijiy davlatlar bilan metrologiya sohasidagi aloqalar ko'lamin yanada kengaytirish, shuningdek, milliy etalonlarni xalqaro prototiplar bilan qiyoslash va o'zaro tan olish imkonini beruvchi yagona tizimni shakllantirish va mamlakatda o'tkazilgan o'lchashlar natijalari xalqaro darajada tan olinishiga erishish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud 29 ta milliy etalon yordamida yiliga 14 mingdan ortiq uskunalar kalibrilanadi va ularning ishonchligi ta'minlanadi. Bunda ushbu etalonlar xalqaro darajada tan olinishiga erishish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud 29 ta milliy etalon yordamida yiliga 14 mingdan ortiq uskunalar kalibrilanadi va ularning ishonchligi ta'minlanadi. Bunda ushbu etalonlar xalqaro darajada tan olinishiga erishish imkonini beradi.

O'zbekistonning Xalqaro metrik Konvensiyaga qo'shilishi, avvalambor, Jahon savdo tashkilotiga kirishida metrologiya sohasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish, eksport-import jarayonlarida texnik to'siqlarni kamaytirish, shuningdek, milliy etalonlarni xalqaro prototiplar bilan qiyoslash va o'zaro tan olish imkonini beruvchi yagona tizimni shakllantirish maqsadida mamlakatda o'tkazilgan o'lchashlar natijalari xalqaro darajada tan olinishiga erishishga qulay imkoniyat yaratadi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi hamda mamlakatimiz uchun Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining Bosh konferensiyasi yig'ilishlarida faol ishtirok etish va ovoz berish, byuro xalqaro qo'mitasidagi saylovlarda o'z nomzodlarini ilgari surish, xalqaro qo'mita, konsultativ qo'mitalar va byuroning ilmiy-texnik laboratoriyalari faoliyatida qatnashish imkonini beradi.

Shuningdek, kalibrangan platina-iridiy kilogrammi (milliy prototip) etalonini tannaxida sotib olish hamda xodimlarni uzoq muddatli malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun byuroga xizmat safariga yuborishga, a'zo davlatlar o'rtasidagi navbat asosida byuro laboratoriyalarida etalonlarni qo'shimcha xarajatlarsiz kalibrashdan o'tkazishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ushbu Konvensiyaga qo'shilishi O'zbekistonning xalqaro norma va standartlarga sadoqatini, xavfsizlik va barqaror rivojlanishga intilishini namoyon etadi.

"Xalq so'zi".

